

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI**

**SULTANOVA ZARIFA O‘KTAMOVNA**

**O‘ZBEK TILIDAGI MAKROMATNLARDA NUTQIY ETIKET VA  
UNING PRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in  
philological sciences**

**Sultanova Zarifa O‘ktamovna**

O‘zbek tilidagi makromatnlarda nutqiy etiket va uning pragmatik tadqiqi..... 3

**Султанова Зарифа Уктамовна**

Речевой этикет в узбекских макротекстах и его прагматическое изучение..... 27

**Sultanova Zarifa Uktamovna**

Speech etiquette in macro texts in the Uzbek language and its pragmatic study..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati** Список опубликованных работ List of published works ..... 60

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI**

**SULTANOVA ZARIFA O‘KTAMOVNA**

**O‘ZBEK TILIDAGI MAKROMATNLARDA NUTQIY ETIKET VA  
UNING PRAGMATIK TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3063 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** G'afforov Nodir Nasriyevich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna  
filologiya fanlari doktori, professor  
Zaripov Botir Pulatovich  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "3" *avgust* soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*142* raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" *iyul* kuni tarqatildi.  
(2025-yil "24" *iyul* dagi *09/25* raqamli reyestr bayonnomasi).



*A. Sh. Sobirov*  
A.Sh.Sobirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

F.F.Usmanov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

D.A.Nurmanova  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida tilni tadqiq etish jarayoni ilmiy paradigmalarning almashinuvi natijasida lingvistik hodisalarning mohiyatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qilmoqda. Tilning funkcionallashuvini muloqot jarayoni bilan bog‘lab o‘rganishga yo‘naltirilgan kommunikativ tilshunoslikning shakllanishi XX asr tilshunosligida yetakchi bo‘lgan sistem-struktur paradigmaning antropotsentrik paradigma bilan almashinishi natijasidir. Til hodisalarini “til va uning egasi” munosabatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish tilshunoslar e‘tiboridan chetda qolgan nutq lingvistikasining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Shu bilan birga, lingvistik belgining nutqiy voqelanishida pragmatik, kulturologik, psixologik hamda ijtimoiy aspektlariga bo‘lgan e‘tiborning ortishiga sabab bo‘ldi.

Dunyo tilshunosligida lingvistik birliklarning pragmatik xususiyatlariga bo‘lgan qiziqish natijasida nutqiy aktlar va ular asosida shakllanuvchi diskurs masalalari, nutqiy aktlarning intensional xususiyatlari bilan bog‘liq holda nutqiy janrlar masalasi muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Nutqiy janrlar nazariyasi tobora ommalashib borayotgan mustaqil ilmiy yo‘nalish bo‘lib, uning markaziy masalasi nutqiy aktlarning janr xususiyatlarini aniqlash hamda nutqiy janrlarning lingvistik va pragmatik aspektlarini tadqiq etishdan iboratdir. Bu borada dunyoning ko‘plab lingvistik markazlari faoliyat yuritmoqda, xususan, Rossiyaning nutqiy janrlar maktablari, Avstraliyaning sistem-funksional tilshunoslik maktabi, Buyuk Britaniyaning amaliy tilshunoslik va maxsus maqsadlar uchun ingliz tili yo‘nalishi hamda AQShning korpus lingvistikasi va ritorik janrlar tadqiqot markazlari ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

O‘zbek tilshunosligida ham tilga antropotsentrik hodisa sifatida qarash barqaror tus oldi. Asosiy e‘tibor til egalarining lingvistik kompetensiyasini, shu jumladan, muloqot kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiluvchi hodisalarni turli aspektlarda tahlil etishga qaratildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma‘naviy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish zarurati ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zero, globallashtirish jarayonida har bir xalq va mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash maqsadida, avvalo, o‘z madaniyati, azaliy qadriyatlarini va ona tilini asrab-avaylash hamda rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-22-maydagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 304-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan. Muloqotning ajralmas qismi bo‘lgan nutqiy janrlar, xususan, qasam janri, til egalarining ijtimoiy, milliy-madaniy, kognitiv-pragmatik va mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim axborot manbaidir. Shunga qaramay, hozirgacha o‘zbek tilshunosligida makromatnlarda nutqiy etiket va uning pragmatik tadqiqi monografik tahlil obekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tilshunoslikda nutqiy etiket, asosan, diniy, tarixiy, lingvomadaniy, funksional-pragmatik aspektlarda tekshirilgan. Biroq sohaviy, diniy va xalqona matnlardagi nutqiy etiket milliy-mental, kognitiv-pragmatik xususiyatlari milliy tillar kesimida tadqiq obekti bo‘lgan emas.

Jahon tilshunosligida, xususan T.Edward Hall, G.Ervinglar tilning madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari<sup>1</sup>, H.P.Grice, P.Brown, S.Levinson, John J. Gumperz, Stephen C.Levinson, U.Labov, P.Ekman, W.V.Friesenlar nutqiy etiketning pragmatik hamda ijtimoiy etiketa jihatlari<sup>2</sup>, Teun A. van Deyk, N.Frye, B.Johnstone, G.H.Mead, J.R.Surrial matnning semantik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari<sup>3</sup> bo‘yicha keng ilmiy-monografik tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot obekti sifatida olingan makromatnlarda nutqiy etiket va uning pragmatik jihatlari borasida rus tilshunoslar bir qancha salmoqli natijalarga erishib kelishmoqda. Jumaladan, M.M.Bakhtin, Y.Lotman, P.Jan va boshqalar badiiy asarlarda nutqiy etiketning semantik va pragmatik funksiyalar<sup>4</sup>, A.E.Kibrik, V.Teliya, S.A.Kutev, M.N.Kojina, L.R.Duskaeva V.A.Salimovskiylar rus tilidagi

---

<sup>1</sup> Hall Edward T. *The Silent Language*. Doubleday, 1959; Goffman, Erving. *The Presentation of Self in Everyday Life*. Garden City, N.Y.: Doubleday, 1959.

<sup>2</sup> Grice H.P. "Logic and Conversation". 1975; Brown, P., & Levinson, S.C. *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press. 1987; John J. Gumperz & Stephen C.Levinson (eds.), *Rethinking Linguistic Relativity*. Cambridge University Press. pp. 17-374 (1996); Labov, W. *The social stratification of (r) in New York City Department Stores*. In N. Coupland & A. Jaworski (Eds.), *Sociolinguistics*. Palgrave Macmillan. 1997; Paul Grice H. "Logic and Conversation". 1975; Ekman, P., & Friesen, W.V. *Facial Action Coding System (FACS)*. 1978.

<sup>3</sup> Teun A van Dijk, Kintsch W. *Strategies of discourse comprehension*. 1983; Frye N. *Anatomy of criticism: Four essays*. Princeton University Press; 2020 May 19; Johnstone, B., & Andrus, J. *Discourse analysis*. John Wiley & Sons. 2024; Mead, G.H. *Mind, self & society*. University of Chicago press. 2015; Searle J.R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge university press.

<sup>4</sup> Bakhtin M. *The problem of speech genres. Modern genre theory*. Routledge. 2014. pp. 82-97.; Жан, П., Седых, А. П., & Бузинова, Л. М. Текст, контекст, интертекст: синтез смыслопорождения. Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики, 4(3), 2018. 21-35; Лотман, Ю. М. (1981). Текст в тексте. Труды по знаковым системам, 14(567), 3-18.

nutqiy etiketni tahlil qilish natijasida uning sintaktik va semantik jihatlarini ochib berishgan<sup>5</sup>.

A.K.Naurizova<sup>6</sup> tadqiqotlarida qoraqalpoq tilidagi etiket soʻzlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning eksplitsit va implitsit maʼnolarda qoʻllanilishi masalasini chuqur oʻrgangan. Oʻzbek tilshunosligida ham bu borada bir nechta muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, S.Safarov<sup>7</sup> “Pragmalingvistika” va “Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari” kabi qoʻllanmalari orqali muloqot tizimini sistema sifatida tahlil etishning baʼzi tamoyil va usullarini ishlab chiqqan boʻlsa, S.Rahmatullaev va X.Hojieva<sup>8</sup> kabi olim va olimalar oʻzbek tilida hurmat formasi va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlarini tadqiq qilishgan.

Shu bilan birga, bu borada S. Moʻminov<sup>9</sup> oʻzbek tilida muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini oʻrganishga qaratilgan ishlarini hamda R.Qoʻngʻurovning<sup>10</sup> oʻzbek tilida nutq madaniyati, nutqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishiga bagʻishlangan ishlarini eʼtirof etish maqsadga muvofiq.

Nutqiy etiket masalasining qiyosiy aspektida oʻrganilishi esa H.K.Turdieva<sup>11</sup> (fors va oʻzbek tillarida nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqini amalga oshirgan) va Q.S.Kaxarov<sup>12</sup> singari olimlar (oʻzbek va nemis tillarida nutqiy etiketlarning qiyosiy tahlili orqali ularning ifoda shakllari va ijtimoiy mohiyatini tadqiq etgan) ilmiy faoliyatlari bilan bogʻliq.

Bundan tashqari, ish doirasida A.Nurmonov, S.M.Iskandarova, Q.A.Rasulov, Z.A.Akbarova, M.Hakimov hamda M.Gaziyeva<sup>13</sup> kabi oʻzbek olim va olimalari ilgari surishgan ilmiy gʻoya va xulosalari ham qimmatli boʻldi.

Tilshunoslikda til va madaniyat, til va unda inson omili, matn hamda diskurs munosabatlari dastlab V.fon Gumboldt, A.Vaysgerber, L.Blumfeld, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov kabi Yevropa va rus tilshunoslari eʼtibor qaratgan<sup>14</sup>. Mutaxassislar tomonidan xorijlik tilshunoslari matn

<sup>5</sup> Кибрик АЕ. Когнитивный подход к языку. Язык и мысль: Современная когнитивная лингвистика. 2015:29-59; Телия В. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Litres; 2022; Кожина МН, Дускаева ЛР, Салимовский ВА. Стилистика русского языка. Общество с ограниченной ответственностью ФЛИНТА; 2011.

<sup>6</sup> Naurizova A.K.. Qoraqalpoq tilidagi etiket soʻzlar, filol. fan. b. fal. Dok. (PhD) dis.avtoref. – Nukus, 2020. – 44 b.

<sup>7</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика – Т., 2008. – 320 б.; Сафаров Ш. Нутқнинг этнососоипрагматик тахлили асослари. Ўқув қўлланма. Самарқанд, 2007. – 40 б.

<sup>8</sup> Рахматуллаев Ш. Хурмат формаси – Т., 1973. – 28-30 б.; Хожиева Х. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. – Самарқанд, 2001. – 130 б.

<sup>9</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – 47 б.

<sup>10</sup> Қўнғуров Р. Ўзбек нутқ оdatининг мулоқот шакллари, филол. фан. д-ри дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.

<sup>11</sup> Turdiyeva H.K Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (Fors va oʻzbek tillaridagi materiallar asosida) filol fan. b. fal. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – 167 b.

<sup>12</sup> Kaxarov Q.Sh. Oʻzbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi, filol. fan. b. Fal. d-ri (Phd) diss. avtoref. – Andijon, 2020. – 52 b.

<sup>13</sup> Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Т.: Фан, 2008. – 176 б.; Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ оdatининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993. – 27 б.; Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.; Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2007. – 23 б.; Ҳақимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. – Фарғона, 2020. – 420 б.

<sup>14</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. 3-жилд. – Б. 262-263.

kategoriya haqida muhim fikrlarni ilgari surishganligini, jumladan, V.Matezius, F.Danesh, V.Dressler, P.Hartman, I.Kovtunova, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospelov, T.Silman, Y.Bartminski, A.Burzynska, M.P.Markowski, F.Danes, N.Shvedova, K.Solganik, L.Loseva, O.Moskalskaya, K.Abdullayev, N.Navro'zovalarning ishlari alohida e'tiborga molik ekanligi ta'kidlanadi"<sup>15</sup>. "Dunyo tilshunosligida matnni antroposentrik paradigma asosida o'rganish, asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi"<sup>16</sup>. Muammoga oid amalga oshirilgan E.Y.Bogdanova<sup>17</sup>, V.Y.Filippova<sup>18</sup>, E.A.Kazimova<sup>19</sup>, I.V.Andreyeva<sup>20</sup>, E.V.Solovyanova<sup>21</sup>, V.E.Chernyavskayalar maxsus tadqiqotlar olib borishgan<sup>22</sup>. Matn lingvistikasining shakllanishi va rivojlanishida I.R.Galperin, G.V.Kolshanskiy, Y.S.Kubryakova, M.L.Makarov, A.Y.Popov, Z.Turayeva kabi tilshunoslarning xizmatlari beqiyos<sup>23</sup>. O'zbek tilshunoslaridan A.Nurmonov<sup>24</sup>, N.Mahmudov<sup>25</sup>, S.Safarov<sup>26</sup>, S.M.Mo'minov<sup>27</sup>, Sh.Iskandarova, S.Boymirzayeva, M.Yo'ldoshev, L.Raupova, M.Qurbonova, I.Azimova, S.Nurmonova<sup>28</sup>, M.Saidxonov<sup>29</sup>, D.Abdiazizova<sup>30</sup>, M.Hakimov, A. Pardayev, D.Rustamov kabi olimlar pragmatik tilshunoslikda matn, diskurs va uning tutgan o'rni masalalarini o'rganishgan<sup>31</sup>. Ilmiy manbalarda diskurs tahlili tilshunoslikning dolzarb

<sup>15</sup> Qurbonova M. Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – B. 6.

<sup>16</sup> Beagrande R., Dressler W. Introduction to Text Linguistics. – London: Longman, 1981.

<sup>17</sup> Богданова Е.Ю. Лексические приметы дискурса власти и дискурса личности в произведениях С.Довлатова. Автореф. дисс... кан. фил. наук. – М. 2000.

<sup>18</sup> Филиппова Ю.А. "Дискурсы сознания" и "дискурсы о сознании" в "новой волне" литературы постмодернизма. Автореф. дисс... кан. фил. наук. – М. 2016.

<sup>19</sup> Казимова Э.А. Персональность в дискурсе побуждения. Автореф. дисс... кан. фил. наук. – М. 2016.

<sup>20</sup> Андреева И.В. Опровержение в институциональном дискурсе Автореф. дисс... кан. фил. наук. – М. 2008.

<sup>21</sup> Соловянова Е.В. Агональность в академическом дискурсе. Автореф. дисс... кан. фил. наук. – М. 2020.

<sup>22</sup> Чернявская В. Е. Дискурс как объект лингвистических исследований // Текст и дискурс. Проблемы экономического дискурса: сб. науч. ст. – СПб.: С.Петербург. гос. ун-т экономики и финансов, 2001. – С. 14.

<sup>23</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического анализа. – М.: Наука, 1981. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. – М.: Наука, 2005.; Кубрякова Е.С., Александрова О.В. О контурах новой парадигмы знания в лингвистике // структура и семантика художественного текста. – М.: Спорт – Академ Пресс, 1999. – 480 с.

Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – 2820 с. Тураева З. Я. Лингвистика текста. – М.: Просвещение, 1986.

<sup>24</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. 3-жилд. – Б. 262-263.

<sup>25</sup> Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: Мумтоз сўз, 2017. – Б.175.

<sup>26</sup> Ш.Сафаров. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 231-250.

<sup>27</sup> Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т.: 2000. – Б. 24.

<sup>28</sup> Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т.: Мумтоз сўз, 2017. – Б.175.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2008.; Исқандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. ...д-ри. дисс. – Тошкент, 2000; Сулаймонов М. Ўзбек тилидаги дастхатларнинг социолингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009.; Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008.; Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

<sup>29</sup> Саидхонов М.М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент. 1993.– Б. 161.

<sup>30</sup> Абдуазизова Д.А. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств (на материале английского, русского, узбекского языков): Дисс. ...кан. фил. наук. – Ташкент, 1997.

<sup>31</sup> Ашурова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – №3 (40). – Самарқанд, 2011. – С.26-33; Шахобитдинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. Номзодлик

yoʻnalishlaridan biri sifatida antroposentrik tamoyillar asosida keng tadqiq qilinmoqda<sup>32</sup>. D.Xudoyberganova, M.Ishonjanova, O.Ablakulova ishlarida esa diskurs masalasiga toʻlaqonli yondashuvlar kuzatiladi.<sup>33</sup> Taʼkidlash lozimki, oʻzbek tilshunosligida matnning lingvopoetik, pragmatik, derivasion, kommunikativ, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlariga bagʻishlangan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin oʻzbek tilidagi makromatnlarda nutqiy etiket tadqiqi pragmatik nuqtai nazaridan monografik aspektda tadqiq qilingan emas.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bogʻliqligi.** Tadqiqot Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Oʻzbek tili sistemaviy tadqiqi” hamda “Oʻzbek tili imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi va uni tahlil qilish hamda baholashning ilmiy asoslari” yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bogʻliqligi.** Tadqiqot Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Oʻzbek tili sistemaviy tadqiqi” hamda “Oʻzbek tili imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi va uni tahlil qilish hamda baholashning ilmiy asoslari” yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oʻzbek tilidagi makromatnlarda nutqiy etiketning pragmatik xususiyatlari va nutqiy xoslanishlarini tahlil qilish, shuningdek, sportchining nutqiy etiketi hamda uning sotsiolingvistik omillarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

antroposentrik tilshunoslikda matn va uning tadqiqini oʻrganish, mikro va makromatnlarning struktur-semantik tavsifini ochib berish, makro matnlarning pragmatik xususiyatlarini yoritish;

makromatnda nutqiy etiket va uning zamonaviy tilshunoslikdagi talqinini ochib berish, nutqiy etiketning sotsial va mental xususiyatlarini oydinlashtirish;

oʻzbek tilidagi nutqiy etiketning ijtimoiy xoslanishlari, nutqiy etiketda pragmatik omillarning roli va oʻrnini ochib berish;

---

дисс... автореф. – Самарканд, 1993. – 20 б.; Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент:Маънавият, 2013. – 320 б.; М.Ҳақимов. Ўзбек прагмалингвистика асослари. – Тошкент:Академнашр,2013. – Б.19-25.; Пардаев А.Б. Дискурс ҳақида айрим мулоҳазалар, – Б. 16.

<sup>32</sup> Хазраткулов А. Ўзбек тили диалогик нутқ синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1991; Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1974; Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке: Дисс канд. филол. наук. – Т.: 1977.; Раупова Л. Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Т.: 2012.; Каримова Ф.С. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т.: 2021.; Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда инкор ва шаклий-мазмуний номувофиқлик: Филол. фан. номз. дисс...автореф. – Т.: 1997.; Лутфуллаева Д. Содда гапларда йўқлик маъносининг яширин ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2001. №5. – Б. 42-45; Юсупова Ш. Диний матн прагматикаси. – Фарғона: Классик, 2020.; Ҳақимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари: дарслик. – Фарғона: Классик, 2020.

<sup>33</sup> Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2015.; Ишанжонова М. Маконни ифодаловчи дидактик бирликларнинг чоғиштирма тақлини (француз ва ўзбек тилидаги матнлар таҳлили мисолида): Фил. фан. фалс. док. ...дисс. – Андижон, 2021.; Таниева Л. Дискурс таҳлил тушунчасига лингвистик ёндашувлар таҳлили//https\involtf.

sportchining nutqiy etiketi tavsifi, uni shakllantiruvchi omillar, sportchi nutqining lingvomadaniy asoslari tahlil qilish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida o‘zbek adabiyoti vakillari asarlaridan olingan makromatnlar tanlangan.

**Tadqiqot predmetini** o‘zbek tilidagi tanlangan asar matni tarkibidagi gaplarning kommunikativ-sintaktik va kognitiv, pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning metodlari.** Tadqiqotda qo‘yilgan muammoni yoritishda tilshunoslikdagi tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, kontekstual, lingvopragmatik, lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

matn va nutq birliklariga antropotsentrik tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilib, mikromatn va makromatnlarning struktur-semantik va pragmatik xususiyatlari ochib berilgan;

makromatn doirasida, xususan, badiiy asardan makromatnlar uchun tanlangan asar personajlari qiyofasida nutqiy etiketning zamonaviy tilshunoslikdagi talqini, uning ijtimoiy, mental va madaniy birliklari aniqlanib, til tizimida emas, balki tilning ijtimoiy-funksional voqelanishi sifatida yoritildi, shuningdek, sportchining nutqiy etiketi tavsifi, uni shakllantiruvchi omillar, sportchi nutqidagi ijtimoiy, mental va pragmatik omillarning roli dalillangan;

o‘zbek tilidagi nutqiy etiket ilk bor sotsiopragmatik aspektda tahlil qilinib, unga ta’sir etuvchi sotsial omillar, jumladan, ushbu nutqiy hodisaning pragmatik aspektlari (intonatsion vositalar, kontekstual moslik, nutqiy intensiya) alohida komponentlar sifatida asoslangan;

makromatnlarida nutqiy etiket vositalarining kommunikativ-strategik funksiyalari va kontekstga xos bo‘lgan pragmatik o‘ziga xosliklari ilk bor tizimli tarzda aniqlanib, ularning ijtimoiy roli va adresantga nisbatan munosabatini va nutqiy strategiyasini aks ettiruvchi pragmatik modellarning kontekstga xos funksional-diskursiv xususiyatlari ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan o‘zbek tilshunosligida kommunikativ, sintaktik, matn lingvistikasi, diskursiv tahlil, filologik ta’limda pragmatik yondashuv sohasi xususiyatlarini o‘rganishda foydalanish mumkinligi asoslangan;

o‘zbek tili makro matnlardagi nutqiy etiket tavsifi berilgan, nutqiy etiketning muloqot jarayonida suhbatdoshlar o‘rtasida sotsial voqealinishi yuzasidan tahlil amalga oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarni qiyoslash, tavsiflash, kontekstual tahlil, lingvopragmatik tahlil kabi usullar bilan asoslanganligi, matn – diskurs dixotomiyasida nutqiy etiket pragmatik xususiyatlarini, shuningdek, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikning matn sintaksisi, stilistika, lingvopragmatika,

paralingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi sohalariga oid nazariy qarashlarning muayyan darajada rivojlanishiga va to'ldirilishiga xizmat qilishidan iborat. Bundan tashqari, mazkur tadqiqotning ahamiyati ilmiy xulosa va tadqiq usullari boshqa shunday ishlarning yaratilishi uchun zamin hozirlashi bilan ham belgilanadi.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** unda makromatnlardagi nutqiy etiketning o'zini kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan aniq belgilanganligi bilan, shuningdek, tadqiqotda to'plangan materiallar oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida "Matnning filologik tahlili", "Matn tahlili", "Til nazariyasi", "Tahliliy o'qish", magistratura mutaxassisligida "Sotsiolingvistika", "Pragmalingvistika", "Sotsiopragsmatika", "Kognitiv tilshunoslik", "Psixolingvistika", "Amaliy tilshunoslik", o'zbek va ingliz tillari sintaksisi, stilistikasi, punktuatsiyasi, lingvopragmatikasi, paralingvistikasi, lingvokulturologiyasigag aloqador darslik va qo'llanmalar yaratishda, oliy o'quv yurtlarida ma'ruzalar, maxsus kurslar o'tishda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek tilidagi makromatnlarda nutqiy etiket va uning pragmatik tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

matn tahlili ijtimoiy fanlar uchun muhim bo'lib, u orqali intervyu transkriptlari, ommaviy axborot vositalari va sotsiologik tadqiqotlar asosida jamiyatning turli jarayonlarini tushunish imkoniyati yaratilishiga oid natijalar va materiallaridan O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasida bajarilgan "O'zbek raqs san'ati terminologiyasi" mavzusidagi PZ-20170930188-raqamli tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 24-sentabrdagi 01-04-08/344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, nutqiy kompetensiya rivojlanib, talabalarda termin va sohaviy matnlar tahlili muayyan darajada oshishiga, mikro va makro terminlarning kognitiv maqomi, formal tasnifi, semantik tasnifi, leksiografik muammolari, lingvokulturologik tadqiqi o'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi bir qator zamonaviy sohalarini rivojlantirishga doir xulosalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

badiiy asar va makromatnlarda tanlangan asarlar personajlari qiyofasida o'zbek tilida so'zlovchi xalqlarning, shuningdek, sportchining nutqiy etiketi tavsifi, uni shakllantiruvchi omillar, sportchi nutqida ijtimoiy, mental va pragmatik omillarning roli xususidagi xulosalardan "Renessans TV" nodavlat telekanalining bir qator ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy ommabop va ko'ngilochar yo'nalishlarida tayyorlanganda foydalanilgan (Renessans TVning 2024-yil 10-oktabrdagi 139/2024-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek tilidagi makromatnlarning nutqiy etiketidagi lisoniy imkoniyatlari, ijtimoiy ixtisoslashuvi, makromatnlardagi adresant va adresat munosabatlari, qahramonlar tilida uchrovchi makro va mikro sheva elementlari, o'zbek tilidagi frazeologik elementlar, lingvokulturologiya va lingvostilistikaga oid terminlarning qo'llanishi, semantik va lingvomadaniy maydonini yoritishga doir nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

o‘zbek tilidagi sportchilarning makromatnlarida nutqiy etiket vositalarining kommunikativ-strategik funksiyalari va ularning sport kontekstiga xos bo‘lgan pragmatik o‘ziga xosliklariga oid tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida bajarilgan “Xoreografiya san’ati orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatdagi faolligini oshirish” mavzusidagi S-2020003161-raqamli tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 24-sentabrdagi 01-04-08/345-son ma’lumotnomasi). Natijada, so‘zlashuvda, harakatida imkoniyati cheklangan bolalarning makro va mikromatnlar orqali so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotga nutqiy vaziyat, nutqiy sharoitning ta’siri, verbal va noverbal vositalarning pragmatik imkoniyatlarini aniqlash bo‘yicha tavsialarni ishlab chiqishga, o‘zbek tilining bugungi so‘zlashuv nutqini qamrab olgan darslik yaratishda, ko‘p tilli so‘zlashgichlar va o‘zbek tilining boshqa tillarda ekvivalenti bo‘lmagan, tarjima qilinmaydigan leksik birliklari – milliy-madaniy so‘zlarning izohi berilgan glossariy, o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

o‘zbek tilidagi sportchilarning makromatnlarida nutqiy etiket vositalari orqali sportchining ijtimoiy maqomini, adresatga nisbatan munosabatini va nutqiy strategiyasini aks ettiruvchi pragmatik modellarning kontekstga xos tipologiyasi xususidagi natijalardan O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining “Ma’naviy hayot”, “Bugunning gapi”, “Agar...”, “Mezon” kabi ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining 2024-yil 09-oktabrdagi 02-14/189-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmun-mohiyati mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik( dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta, jumladan, 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Tadqiqotning **Kirish** qismida uning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obekt va predmeti tavsiflangan, uning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Matn tilshunosligi va uning taraqqiyotiga aloqador hodisalar**” deb nomlangan birinchi bobida matn tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, unga aloqador hodisalar hamda matn bo‘yicha jahon, rus va o‘zbek tilshunoslarining ilg‘or fikrlari ilgari surilgan. Ushbu bobning birincha fasli “Matn va uning jahon, rus tilshunosligidagi tadqiqi” deb nomlangan. Og‘zaki fikrlarimizning yozma ifodasi matn deb atalib, u barcha til birliklari ichida eng katta hajmli sintaktik birlikdir. “*Matn*” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib “*yelka*” ma‘nosini anglatadi<sup>34</sup>. Matn masalasini o‘rganish Aristotel zamonidan boshlangan. Ular bog‘li nutq, nutqni yaxlit matn orqali ifodalash, gapdan yirikroq butunlik sifatida qarash antik davrga borib taqaladi. Keyinchalik g‘arbiy yevropada, xususan, Polshada matn masalasi va matn lingvistikasi katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi.

Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiya ishida bu haqida shunday yozadi: “Matn” so‘zining lug‘aviy ma‘nosida birikish, bog‘lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishini o‘rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biri bo‘lib qoldi<sup>35</sup>. Matn birliklarining o‘zaro bog‘lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko‘rinishi, olmosh turkumiga oid ba‘zi so‘zlar, gapning so‘roq shakliga xos bo‘lgan ko‘rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o‘rin tutadi<sup>36</sup>. Mazkur ishda muallif “matn” atamasini “nutq”, “kontekst” kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta‘kidlaydi. Nutq og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. “Nutq subektdan adresatga yo‘naltiriluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat obektiv informatsiyadan iborat bo‘lmay, balki o‘ziga pragmatik mazmuni ham qamrab olgan nutqning material ko‘rinishidir”.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “**Mikro va makromatnlarning struktur-semantik tavsifi**” deb nomlangan va unda kommunikativ informatsiya odatda, so‘zlovchi, tinglovchi va adresant o‘rtasida amalga oshadi. Shu kunga qadar tilshunosligimizda matnlar antroposentrik, psixolingvistik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, struktur - semantik tahlil planda o‘rganilmoqda. Bu faslda yana matnlarning semantik-struktur xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Matn tushunchasi turli xil qoidalar bilan izohlangan. Ayrim manbalarda ba‘zan bitta so‘z, yoki so‘z birikmasi ham matnga teng kelishi yozilgan. Masalan, *Bolalik*. Mazkur atov gapni aytganimizda ko‘z oldimizga bolalik xotiralari, o‘yinlar, sho‘xliklar va har kimning o‘z bolaligiga oid xotiralari uyg‘onishini inobatga olib, mazmunan matnga tenglashtiriladi. Yoki so‘z birikmasi shaklidagi birliklarni ham matnga tenglashtirish holatlari ham kuzatiladi. Masalan, *Ilk ko‘klam chog‘i*. Bu misolda ham ilk bahor nafasi, daraxtlarning gullashi tabiatning uyg‘onish jarayoniga oid voqelik nazarda tutilib matnga tenglashtiriladi.

<sup>34</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 156.

<sup>35</sup> Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз...дис. – Тошкент, 1993. – Б. 7.

<sup>36</sup> Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – 188 b.

Masalan, O‘lmas Umarbekovning “Hayot qo‘shig‘i” hikoyasidagi shifokor Mirsidiq Jalilov obrazi misolida ko‘ramiz. Noverbal kommunikatsiyaning o‘ziga hos jihatlaridan yana birini shu hikoyada ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, insonlar ayni damda o‘zlari yashayotgan muhit, vaziyat va sharoitdan kelib chiqqan holda, bevosita o‘sha vaziyatga mos keluvchi noverbal vositalardan foydalanishlari mumkin. Qahramonimizning do‘sti bilan bo‘lgan muloqotida uning kasbi va tabiatiga zid bo‘lgan kommunikatsiya vositalaridan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu matnda berilgan *baroq qoshlari chimirildi, boshini sarak-sarak qilib qoydi.....* Emotsiya va qahramonimizning do‘sti bilan bo‘lgan muloqotida uning kasbi va tabiatiga zid bo‘lgan kommunikatsiya vositalaridan foydalanganlari matnning ichki ma’nosi, ya’ni o‘quvchi anglaydigan mazmuni, matnni shakllantirishda ishtirok etgan vositalar ohang, bog‘lovchilar *lekin, -a, mayli, bilan* va boshqalar uning tashqi tomonini tashkil etadi.

Ernest Xemengueyning “Chol va Dengiz” asarida berilgan mazkur parcha Chol hamda bolaning nutqidan olingan bo‘lib, ularning hissiy- emotsional tuyg‘ulari bilan bir qatorda, matn semantikasi keksalar nutqidagi donolik va bolalar nutqidagi samimiylikni aks ettira olgan.

Ular Terrasga kelib o‘tirishdi. Ko‘pgina baliqchilar cholni mazax qilishar, ammo u buni ko‘ngliga og‘ir olmas edi. Yoshi ulg‘ayibroq qolgan baliqchilar esa unga qarab xafa bo‘lib ketishar, biroq sir-boy bermas va oqim haqida, qarmoqni qancha chuqurlikka tashlashlari, ob-havo, nihoyat, dengizda nimalar ko‘rishgani to‘g‘risida beozor gurunglashib o‘tirishardi. Bugun ishi o‘ngidan kelganlar ovdan allaqachon qaytishgan va o‘lja marlinlarini tozalab, bir juft taxta ustiga ko‘ndalang qo‘yishgancha to‘rtovlashib ularni baliq omboriga eltib topshirishgan edi. Bu yerdan baliqlarni refrijeratorda Gavana bozoriga keltirib sotardilar. (Ernest Xeminguey “Chol va dengiz”) matnning semantikasini tahlil etish jarayonida uning strukturasi chetlab o‘tishning imkoni yo‘q. Matn ma’nosini tahlil etishda makrotil yondashuvi yoki mikrotil yondashuvini o‘z ichiga oladi. Mikroyondashuv deganda tilshunoslar adabiy ma’no yoki mustaqil grammatikani nazarda tutadilar. Makroyondashuvda esa kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan yondashuvini nazarda tutadilar.

Matnlar semantik struktur jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

**1. So‘zlovchi va tinglovchining madaniy saviyasiga ko‘ra:**

a) 70 yoshlardagi savodsiz, omi qariya – so‘zlovchi nutqi:

b) 70 yoshlardagi savodsiz, omi qariya – tinglovchi nutqi:

v) madaniyatsiz, yengiltabiat, mas’uliyatsiz, uyatsiz, shallaqi ayol nutqi:

**2. So‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqeiga ko‘ra** er-xotin o‘rtasidagi arazdan keyingi holatning ifodasiga e’tiborni qaratsak:

1. *«Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig‘lagan Layli otidan – sizga boshimdagi sochlarimning tuklarigacha behad salom. Mendan – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O‘tgan ishga salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni esga olish mening uchun o‘sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men*

**unutdim.** *Shuning uchun so‘zimni o‘zimning oxirgi ham chin baxt ishlari hidlagan tariximdan boshlayman.*

*Siz – qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozgandek bo‘lib qochgansiz, ikki yil bo‘yi Marg‘ilon kelib yurishlaringizni men — o‘zimcha yechdim, lekin topib yechdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lganini angladim. Yo‘qsa, meni ko‘rar edingiz, ko‘rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko‘rar edilar, to‘yar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g‘ovg‘asi ko‘p sizni zir keltirib, jondan to‘ydirgan bo‘lsa, ajab emaski, qocha boshlagansiz... Qochsangiz qochib ko‘ringiz, ammo men bu kundan boshlab, birovlarni quvishga bel bog‘ladim. Otam bilan onam rafoqatlarida xizmatigingizga – cho‘riligingizga erta-indin yuraman, sevganingiz kundoshim oldida qadr-u qiymatimning nima bo‘lishini ham bilaman... Siz olijanobsiz: eski qadrdonlar hurmatiga, ko‘ngil uchun kulib boqarsiz... Loqaq shugina bilan ham baxtsizni mas‘ud qilarsiz! Ammo... sevganingiz – kenjangizning jerkishlaridan, qarg‘ishlaridan behad qo‘rqaman, o‘zimda yo‘q qo‘rqaman. Shu yaqin oradagi uning bilan bo‘ladigan mas‘ud daqiqalaringizda xudo yo‘liga va‘da olingiz – meni og‘ritmasin, raqibam keldi deb o‘ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do‘stga bir cho‘rilik va shu munosabat bilan birovlarni ko‘rib yurish..<sup>37</sup>*

Yuqoridagi parchada haqiqiy musulmonchilik ruhida tarbiyalangan, erning piri borligini butun vujudi bilan his etadigan, uning o‘zigagina emas, soyasiga ham ko‘rpacha to‘shashga rozi, har bir so‘zini o‘ylab gapiradigan iffatli, hayoli, tom ma‘nodagi o‘zbek ayoli tasvirlangan. Uning nutqiga diqqat qilaylik: “*Mendan – hadd-u hisobsiz gunoh, sizdan kechirish; ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim; ko‘rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko‘rar edilar, to‘yar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g‘ovg‘asi ko‘p sizni zir keltirib, jondan to‘ydirgan bo‘lsa, ajab emaski, qocha boshlagansiz...; Siz olijanobsiz: eski qadrdonlar hurmatiga, ko‘ngil uchun kulib boqarsiz...*”

### **3. So‘zlovchi tinglovchining jinsiga ko‘ra:**

Ayollar nutqining o‘ziga xosligi:

*O‘rtog‘ining bu samimiyatini Salti ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, ko‘ngil bilan sezib anglagan edi. Shuning uchun u Zebining so‘ziga javob ham berib o‘tirmasdan, birdaniga uning qo‘lidagi supurgiga yopishdi. O‘z ko‘nglida, supurgini olib, bir oz supurishib bersa, haligi samimiyatga yarasha javob bergan bo‘lardi. Zebi supurgini qo‘lidan oldirdi, lekin o‘rtog‘i supura boshlagandan so‘ng: — Voy, bu nimasi! Qo‘ying, o‘zim supuraman! — deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi; shunday qilib, sahnni supurish o‘rniga bu ikki o‘rtoq butun hovlini boshlariga ko‘tarib, shovqinlar va qiyqirishlar bilan dunyoni buzib, bir-birlarini quvlashib ketdilar..<sup>38</sup>*

Erkak va ayol nutqining o‘ziga xosligi: Shu munosabat bilan Qurbonbibi yana bir marta oldi:

<sup>37</sup> Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар (роман). – Б. 306. URL: [https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_nasri/Abdulla%20Qodiriyy.%20Otkan%20Kunlar%20\(roman\).pdf?ysclid=m432o85yu351169905](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Abdulla%20Qodiriyy.%20Otkan%20Kunlar%20(roman).pdf?ysclid=m432o85yu351169905)

<sup>38</sup> Абдулхамид Чўлпон. Кеча ва кундуз (роман). URL: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulhamid-cholpon/abdulhamid-cholpon-kecha-va-kunduz-roman/?ysclid=m449e5f0x4759184952>

- *Hast eshon bilan birga borib, u kishi tufayli shuncha izzat-ikrom ko‘rib, noz-ne‘matga serob bo‘lib... hast eshondan burun qochib kelganingiz nimasi? Shaharda ochilmagan do‘koningiz yo to‘xtab qolgan objuvozingiz bormidi? Sotti yana past toifa oldida muborak og‘zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo‘ldi.*

- *Badbaxt Fitna! Qo‘yasanmi, qo‘ymaysanmi, axir? “Hubbil vatani minal-imon”, deganlar.*

- *“Vatanni sevish imondan”, axir! Bilmasang bekor-da, Vatani yo‘q - dunyoda lo‘li, xolos. Meni bevatan, deb bildingmi? Sotti bir oz qizib ham ketdi:*

- *Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimizni deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o‘rusvoyning religa tushib, “hayt!” deb... Makkatulloga jo‘nab qolaman! Hovling boshingdan qolsin, Fitna! Bu safar Qurbonbibi yalinib-yolvorib zo‘rg‘a tinchitdi<sup>39</sup>(Cho‘lpon “Kecha va kunduz”)*

#### **4. So‘zlovchi tinglovchining yosh xususiyatiga ko‘ra:**

Buvi va nevara nutqi: ya‘ni sho‘x nevara bilan buvining nutqi Anvar Obidjonning asarida ajoyib va kulgili tarzda ko‘rsatib berilgan;

*Buvim joynamozni yig‘ishtirib bo‘liboq, yaxshi yotib-turdingizmi, mehribonim, degan gapimni zarracha mensimay, indamasdan borib, uy eshigini ichkaridan mahkamlab yopdi. So‘ng aniq maqsadda ilgaritdan tayyorlab qo‘yilgan xivichni sholchaning tagidan oldi-yu, kela solib, boldirimga beayov charsillatishga tushdi:*

– *Mana senga yo‘lbars! Mana senga odamlarni mazaxlash! Mana senga mahallani alg‘ov-dalg‘ov qilish! Seni deb choyxonada qancha-qancha choynak-piyola sinibdi... Mana! Mana senga! Mana bo‘lmasa!..<sup>40</sup>*

Lisoniy birliklar serqirra mohiyatli bo‘lganligi bois, kamida ikkita paradigмага kiradi. Shu boisdan biror butunlikka kiruvchi lisoniy birliklarni kamida ikki tomondan tasniflash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Matnlar ham lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli bo‘lib, bu murakkablik uning til sathida tutgan o‘rni, tarkibidagi birliklar va bog‘lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatlarining rang-barangligi bilan belgilanadi. Shuningdek, matn turlarini xilma-xil asoslarda turlicha tasniflash mumkin bo‘ladi. Tasnif asoslarining aniqligi va tasnifning izchil amalga oshirilishi masala mohiyatini oydinlashtirishda muhim omillardan biridir.

**Uchinchi fasli “Makromatnlarning sotsial va pragmatik xususiyatlari”** deb nomlangan. Matnning muhim xususiyatlaridan biri uning to‘liqligidir. Sarlavhani matn yuzasiga olib chiqadi. Busiz, bizning fikrimizcha matn yaratish mumkin emas. Matnni tahlil qilishning boshlang‘ich nuqtasiga uning o‘ziga xos xususiyatiga, tuzilishining umumiy qonuniyatlariga alohida e‘tibor qaratilganligidir. Tahlillarni amalga oshirish natijasida, grammatik ma‘no ma‘lum grammatik shaklning ma‘nosi hisoblansa, grammatik kategoriya – muayyan grammatik tushunchani ifodalovchi shakllarning umumlashgan sinfi, grammatik, aniqrog‘i, lingvistik ongda singgan va grammatika predmetini belgilovchi mantiqiy-

<sup>39</sup> Абдулхамид Чўлпон. Yuqoridagi asar.

<sup>40</sup> Анвар Обиджон. Мўтвоймисан, Митгвоймисан? Қисса. URL: <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/anvar-obidjon/anvar-obidjon-mottivoymisan-mittivoymisan-qissa/?ysclid=m449fq2elh285131102>

falsafiy kategoriyasidir.<sup>41</sup> Informativlik, integratsiya, retrospeksiya kabi ko‘pgina matnning toifalari faqat matnning mulki deb hisoblash uchun juda keng ko‘rinishi mumkin. Biroq tilshunos Galperinning fikricha, bizning tushunchamizdagi matn bo‘yicha haqiqatning bir qismi grafik tasviri, tilning yozma nusxasi mahsulidir. Matnda nutqiy-ijodiy jarayon natijasida shunday xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish zarur. Galperin taklif qilayotgan matnning ta‘rifi bir xilma-xillikka imkon beruvchi mavhum modelni nazarda tutadi.

Matnning ko‘pgina toifalari, masalan, informativlik, integratsiya, retrospeksiya va boshqalar, faqat matnning mulki deb hisoblash uchun juda keng ko‘rinishi mumkin. Ammo tilshunos Galperinning fikricha, “bizning tushunchamizdagi matn bo‘yicha haqiqatning bir qismi”ning grafik tasviri, tilning yozma nusxasi mahsulidir. Aynan shu xususiyat sarlavhani matn yuzasiga olib chiqadi.

**Birinchi bobning oxirgi fasli “Matn va diskurs munosabati”** deb nomlangan. Bunda har qanday matnda axborot so‘zlovchining ichki maqsadi boshqaruvida ikki mazmuniy ko‘rinishdan iborat bo‘ladi. Bular yoyiq va yig‘iq mazmun shakllaridir. Nutq vaziyati so‘zlovchidan har qanday axborotni ham oshkora ifodalashga yo‘l qo‘ymaydi. Buning uchun, albatta, so‘zlovchi har qanday vaziyatda fikr ifodalashga tayyor turishi kerak. Ba‘zan nutq vaziyati yoki ijtimoiy muhit verbal ifodada oshkora tasvirga yo‘l qo‘yavermaydi. Hazrat Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi quyidagi rivoyat yashirin mazmuniy ifodaning verbal matn tarkibiga qanday sig‘dirilganining klassik namunasi hisoblanadi:

Yirik tilshunos olim I.V.Arnold yashirin axborot ko‘rinishlarini uslubiy aspektda tadqiq va talqin etadi. Uningcha, verbal ifoda vositasi bilan aytib ulgurilmagan va so‘zlovchi tomonidan ishora qilingan yashirin ma‘nolar stilistik obekt sifatida qaralishi shart. Umumyashirin mazmun ko‘rinishlariga xos bunday qarash bizni qoniqtirmaydi. Bizningcha, yashirin ma‘noning ifoda imkoniyatlari to‘liq ma‘noda so‘zlovchining xususiy xohishiga ko‘ra namoyon bo‘lishining o‘zi bu yo‘nalish sof ma‘noda lingvistik pragmatikaning obekti deb qaralsagina mutlaqo to‘g‘ri bo‘ladi.

Umumyashirin atamasi lingvistik tushuncha sifatida bayon qilingan yashirin ma‘noning barchasini qamrab oluvchi mazmunni anglatadi. Ta‘rifdan anglashiladiki, yashirin ma‘no ko‘rinishi faqat bir shakldan iborat bo‘lib qolmasdan, u bir necha ko‘rinishlardan iborat bo‘ladi. Umumyashirin atamasining lug‘aviy ma‘nosi matnda verbal ifodalab bo‘lmaydigan yoki verbal bayon maromiga yetmagan holatda so‘zlovchi ishora qilgan va tinglovchi anglab olishi lozim bo‘lgan noshakliy mazmun ko‘rinishidir. Bunday noshakliy ifoda ko‘rinishlari, albatta, so‘zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog‘liq ravishda nutqiy vaziyat ta‘sirida namoyon bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlangan diskurs hodisasi tizimli kategoriya sifatida ifodalash va anglash bilan bog‘liq barcha jihatlarni qamrab oladi. Shu ma‘noda umumyashirinlik matnda verbal bayonga ega bo‘lmagan, ammo adresat tomonidan ziyraklik bilan anglab olinuvchi kontekstual mazmundir. Topishmoq matnlariga xos yashirin ma‘noni pragmadiktal yashirin ma‘no deb yuritimiz. Matal, maqol va

---

<sup>41</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М: Наука. 1981. – 139 с.

topishmoqlarda ifodalangan yashirin ma'nolarning ham anglanish darajasi tinglovchi va nutq ishtirokchilarining pragmatik imkoniyatlari darajasiga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, "...maqolning mazmuni muayyan xalq uchun bir xilda tushunilsa, topishmoq asosida yashiringan mazmun - javob faqat topqir, farosatli, zukko kishilar uchungina tushunarlidir"<sup>42</sup>. Demak, so'zlovchi va tinglovchi pragmatik imkoniyatlari umumiyashirin mazmuni ifodalash va anglashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotning ikkinchi, asosiy bobi **"Madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketning sotsiopragmatik talqini"** deb nomlangan. **"Lingvomadaniy birliklarning nutqiy etiketni yaratishdagi o'rni"** deb nomlangan **birinchi faslida** etiket qoidalari, odob-axloq qoidalari, milliy o'zlikni anglash tushunchalarining kelib chiqish tarixiga, rivojlanish bosqichlariga va yaratilgan adabiyotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Axloq – jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa sifatida nafaqat shaxsni, balki butun bir jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi berilgan. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotining hammaga ma'qul bo'lgan ta'rifi tilni madaniyat bilan ajralmas bog'lanishda o'rganishdadir. XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o'z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o'rganadi. U avvalombor, ma'lum bir madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an'ana, udum, taomil, ramzlarini vas hu kabi madaniy birliklarini tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taalluqli bo'lib, ular tilda maishiy taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi. Lingvomadaniy birliklar tahliliga nazar tashlansa, unda "muqobilsiz leksika" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushuncha muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. Nutqiy etiketda uchrovchi "salomlashish", "uzr so'rash", "murojaat", "xayrlashish", "minnatdorchilik", "rozilik", "taklif etish" shakllarini Xitoy til madaniyati bilan tahlil qilishga harakat qiladi. Jumladan, yuz tushunchasini Xitoy lisoniy ko'rinishini ifodalagan xitoyliklar muloqotining tavsiflovchi muhim xususiyatlardan biri ekanligini ta'kidlab, mazkur tushuncha, xitoy lingvomadaniyati vakili uchun o'zini o'zini saqlab qolish o'z qadr qimmatini yo'qotmaslik shuningdek, boshqalar oldida "yuzini yo'qotmaslik", ya'ni "obro'yini to'kmaslikka" harakat qilishni anglatishini izohlab bergan.

**Bobning ikkinchi fasli "Nutqiy etiket va uning zamonaviy tilshunoslikdagi talqini" deb nomlangan.** Nutqiy etiket masalasi rossiyalik olimlar tomonidan o'tgan asrning 80-yillaridan o'rganila boshlandi. T.V. Larina<sup>43</sup>, I.A. Romanova<sup>44</sup>,

---

<sup>42</sup> Соатов Б. Ко'rsatilgan maqola. – В. 39.

<sup>43</sup> Ларина Т. В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английской и русских лингвокультурных традиций. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – С. 136.

<sup>44</sup> Романова И. А. Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. – М.: Наука, 2009. – 304 с.

Y.A. Rudneva<sup>45</sup>, R.Ratmayr<sup>46</sup>, N.Formanovskaya<sup>47</sup> Y.Malyuga<sup>48</sup>, I.A.Romanova, T.V.Larina kabi o‘z ishlarini bevosita nutqiy etiket masalasiga bag‘ishlagan olimlarning tadqiqotlariga e‘tibor qaratilgan.

Mazkur tavsiyalar “Nutqiy etiket qoidalari” mavzusi doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, P.Grays bu qoidalarni o‘z jamiyati tamoyillaridan kelib chiqib yoritganligi, yoki universal nutqiy etiketni nazarda tutganligi aniq keltirilmagan.

G.Lich ingliz madaniyatiga asoslanib, nutqiy etiketning olti tamoyilini keltiradi<sup>49</sup>. Quyida ular jadval shaklida berilishi ancha tushunarli bo‘ladi<sup>50</sup>.

<b>№</b>	<b>Qoida</b>	<b>Maksimallashtiring</b>	<b>Minimallashtiring</b>
1	<b><i>Odob</i></b> ( <i>Tact</i> )	Boshqalar uchun foyda	Boshqalar uchun zahmat
2	<b><i>Olijanoblik</i></b> ( <i>Generosity</i> )	O‘zi uchun zahmat	O‘zi uchun foyda
3	<b><i>Ma’qullanish</i></b> ( <i>Approbation</i> )	Boshqalarga qaratilgan maqtov	Boshqalarga qaratilgan tanqid
4	<b><i>Kamtarlik</i></b> ( <i>Modesty</i> )	O‘zini tanqid qilish	O‘zini maqtash
5	<b><i>Kelishuv</i></b> ( <i>Agreement</i> )	Kelishuv	Kelishmovchilik
6	<b><i>G’amxo‘rlik</i></b> ( <i>Sympathy</i> )	G’amxo‘rlik	Loqaydlik

O‘zbek tilida nutq madaniyati nutqiy odatlar maslalarining nazariy tadqiq etilishi va tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida shakllanishida taniqli olimlar S.Ibrohimov, R.Kungurov, X.Doniyorovlar tamal toshini qo‘ygan bo‘lsalar keyinchalik boshqa olimlar katta mehnat qilib bu yo‘nalishda nuayyan sohalarni shakllantirishga erishdilar. Masalan, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar asosan, leksik birliklar so‘z kesimida ish olib brogan bo‘lsalar B. O‘rinboyev, sintaksis sohada E. Begmatov, Yo. Tojiiyev, S. Mo‘minov, S. Karimov, Sh. Iskandarova, Z.Akbarova kabi olimlarning tadqiqotlarida esa muloqot jarayonining nutqiy odat shakllari jihatidan tahlili masalasiga oydinlik kiritildi. A.Mamatov esa nutq madaniyati va til meyorlariga oid atama va tushunchalarga izoh berilgan lug‘at yaratdi. O‘zbek tilshunosligida nutqiy odatlarning ilmiy asoslari bo‘yicha

<sup>45</sup> Руднева Е.А. Стратегии лингвистической вежливости в спонтанном речевом взаимодействии. – СПб.: Институт лингвистических исследований российской академии наук, 2018. URL: [https://iling-ran.ru/theses/rudneva\\_full.pdf](https://iling-ran.ru/theses/rudneva_full.pdf)

<sup>46</sup> Ратмайр Р. Вежливость в русском языке и культуре // Русская реч и рынок: традиции и инновации в деловом и повседневном общении. – М.: Языки славянской культуры, 2013. – С. 140-220.

<sup>47</sup> Формановская Н. И. Ритуалы вежливости и толерантность // Философские и лингвокультурологические проблемы толерантности: сборник статей. – Екатеринбург: Издательство Уральского государственного университета, 2003. – С. 345-362.

<sup>48</sup> Мalyuga Е. Н. Лингвопрагматические аспекты женской и мужской речи в межкультурном деловом интервью // Вопросы журналистики, педагогики, языкознания. Серия Гуманитарные науки. – М.: Российский университет дружбы народов, 2013. – № 13 (156). – С. 107-112.

<sup>49</sup> Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – P. 257.

<sup>50</sup> Turdieva H. K. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (fors va o‘zbek tillaridagi materiallar asosida): Filol. fan. dok. ...dis. – Toshkent, 2020. – 186 b.

tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu soha rivojida ko‘plab olimlar qatorida professor N. Mahmudovning alohida xizmatlari bor. Xususan, olimning ilmiy qarashlarida til va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari nazariy asoslangan. Bular “Til siyosati va siyosat tili”, “Xalqlar tili va ona tili”, “Fan tili va til fani”, “So‘z o‘zlashtirishda meyor va milliylik”, “O‘xshatishlar va milliy nigoh” nomli va boshqa ko‘plab ilmiy izlanishlarda o‘zbek tili nutqiy meyorlarning o‘ziga xos tomonlari lingvokulturologik, antropotsentrik, hamda kognitiv tilshunoslik yutuqlarini o‘ziga xos singdirgan yangicha qarashlar asosida chuqur tadqiq olib brogan. Professor S.Mo‘minov o‘z ilmiy izlanishlarida o‘zbek muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy lisoniy aspektda o‘zbek kommunikantlari faoliyatining kompozitsion bosqichlari kommunikantlar o‘rtasidagi munosabatlarining milliy o‘ziga xos tomonini muloqot xulqining jins, yosh, sotsial va xudud jihatdan xoslanishini atroflicha tadqiq etgan. Sh.M.Iskandarova “O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari” mavzusidagi nozmodlik dissertatsiyasida turli tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi “vazifa” so‘zining ma’nolari nutqiy etiketga tegishlilikini nutqiy etiketning eng asosiy vazifalaridan biri aloqa o‘rnatish bo‘lib, unda xususiy va ommaviy tarzda aloqa o‘rnatish va muloqotni saqlash tushunilishini bu vazifa so‘zlashuvchilarning yoshi, jinsi, tanish-notanishligi, muloqot sharoiti asosida o‘ziga xos o‘rin tutishini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Tadqiqotning keyingi fasli **“Nutqiy muloqot va unga pragmatik yondashuv”** deb nomlangan. Bunda *muloqot* so‘zining lingvistik qiymati keng ma’noda–“axborot almashish”, “kishilarning kommunikativ munosabati” ma’noviy mohiyati asosida idrok qilinadi.

So‘zlovchi va tinglovchining yoshiga ko‘ra farqlanishi ham alohida-alohida jamiyatlar sifatida qaraladi, haqiqatan ham ular orasida anchagina tafovutlar mavjud. Buni quyida berilgan ta’limiy diskursdagi misollardan yaqqol bilib olish mumkin. O‘quvchilarning o‘qituvchi, unga tavsif berish va darsga munosabati turlicha ifodalanadi. Tilshunos L.Raupova so‘zlovchi va tinglovchining ayol yoki erkak jinsiga mansubligi dialogik diskurs uchun ahamiyatli ekanligini, ayol yoki erkak nafaqat biologik va fiziologik jihatdan, balki ularning nutqi ham bir-biridan farqlanishini qayd etadi<sup>51</sup>.

Ta’sir birliklarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo‘lish mumkin:

**I. Ichki ta’sir birliklari.** Bunga adresant yoki adresat shaxsi bilan bevosita bog‘liq quyidagi belgi-xususiyatlar kiradi:

1. Millati.
2. Jinsi.
3. Yoshi.
4. Ijtimoiy belgilari.
5. Ta’sir birliklarga yaqinlik darajasi.

**II. Tashqi ta’sir birliklari.** Bunga muloqotga bilvosita ta’sir etuvchi quyidagi tashqi omillar kiradi:

1. Muloqot vaqti.

---

<sup>51</sup>Raupova L. Диалогик дискурсадаги полипредикатив birliklarning социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2012. – 246 б.

2. Vaziyat.

3. Ijtimoiy holat.

Lingvopragmatika-pragmalingvistika va sotsiopragmatikaning o'rtasida joylashadi. Bu yerda lingvopragmatika verbal muloqotning ikki asosiy komponentlari orasida kerakli halqa (zanjir) vazifasi bilan favqulodda muhim ahamiyatlidir. Lingvopragmatika ham til tizimi, ham so'zlovchining kognitiv muhiti orasidagi moslashuvni belgilaydi. Bu holatda lisoniy va ijtimoiy meyorlarni bog'lab o'rganuvchi lingvopragmatika maqbul yo'nalish hisoblanadi. Tilshunoslikning lingvopragmatika sohasi tilning faol nutqiy muloqotdagi qat'iy belgilangan shakli va belgilangan ijtimoiy-pragmatik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Lingvopragmatika so'zlovchining maqsadi va so'zlovchining suhbatdoshiga bo'lgan munosabatini belgilashni o'rganadi. Bu soha quyidagilarni o'rganadi:

nutq aktlari nazariyasi, so'zlash maqsadi va nutq akt turlari;

suhbat olib borish qoidalari;

nutqiy etiketning ahamiyati tomonlari;

mavhumlashtirilgan fikr, qochiriq ko'chirma nutqiy aktlar diskurs masalalari.

Aytish joizki, nutqiy aktlardagi etiket ko'rinishlari verbal birliklar bilan birga so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan noverbal (paralingvistik) vositalar orqali ham xalqning turmush tarzi qadryatlari mentaliteti va geografik joylashuvi haqida ma'lumot beradi. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tomondan tadqiqi ikki yoki undan ortiq xalqning o'zaro bir-birlarining madaniyati mentaliteti e'tiqodi an'analari qadryatlarini kengroq tushunish muloqotda pragmatik xatolarga yo'l qo'ymaslik madaniyat tushunchalari haqidagi bilimlarni oshirish imkoniyatlarini ochadi.

Ikkinchi bobning **“O'zbek tilidagi nutqiy etiketning ijtimoiy xoslanishlari”** deb nomlangan keyingi faslida matn va til estetikasi, monologik nutq, dialogik nutq, parallel nutq, ichki nutq, tashqi nutq, yozma nutq, gazeta va jurnallardan olingan nutq ko'rinishlari tahlilga tortilgan. Bob bo'yicha xulosalar berilgan. Tilning mohiyatiga daxldor bo'lgan bosh vazifasining kommunikativ vazifa ekanligi bugun faqat mutaxassisligigina emas, balki hammaga besh qo'lday ma'lum bir haqiqat. Biroq mazkur kommunikativ aloqaning nutqiy muloqotning lisoniy mantiqiy ijtimoiy-ruhiy tarixiy-estetik mexanizmlari ular bilan bog'liq qoidalari o'ziga xosliklar tegishli fanlar (tilshunoslik adabiyotshunoslik, mantiq, sotsiologiya, estetika) kabi tomonidan to'laligicha o'rganib bo'lingan emas. Bu boradagi juda ko'plab muammolar hamma zamonlarda olimlarning e'tiborida bo'lib kelganiga qaramay hamon bahs-u munozaralarga sabab bo'ladi, ilgari surilgan turli fikrlar goh birovlar tomonidan e'tirof qilinsa goh jiddiy e'tirozlarini tug'dirib keladi. Vaholanki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) -axborot (matn) -tinglovchi (o'quvchi).

S.Muhammedova, M.Saparniyozovalarning hamkorligida chop etilgan **“Matn lingvistikasi”** kitobida yuqoridagi fikrlarga nisbatan bir qancha e'tirozlar bayon etilgan: **“avvalo aytish joizki, kishilar o'rtasidagi aloq-kommunikatsiya matnlar**

vositasida amalga oshar ekan (bu hol matn lingvistikasining yaratuvchilari umuman, matn tadqiqotchining aksariyati tarafidan e'tirof etilgan ekan" matnini faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi tabiiy holdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Sportchining nutqiy etiketi va uni voqelantiruvchi omillar”** deb nomlangan bo'lib, bobning **“Sportchining nutqiy etiketi tavsifi”** deb nomlangan faslida nutqiy etiketning mavjudligi sportchi muvaffaqiyatining 50 foizini belgilashi. Aslida barcha soha vakllarida ham nutqiy etiketning mavjudligi ularning kompetentlik darajasi yuqoriligini ko'rsatib berishi asoslangan.

Akademik D.S.Lixachev “Yaxshilik haqida maktublar” asarida insonning aqliy rivojlanishi va axloqiy fazilatlarini baholashning eng ishonchli mezonlaridan biri uning nutqiga e'tibor qaratish ekanini ta'kidlaydi. Insonning qanday gapirishini tinglash orqali uning tafakkuri va axloqiy jihatlari haqida xulosa qilish mumkin. Bizning nutqimiz nafaqat xatti-harakatlarimizni, balki shaxsiyatimiz, ma'naviyatimiz va tafakkurimiz darajasini ham aks ettiradi.

Haqiqatan ham, inson nutqi uning madaniy saviyasi, aqliy salohiyati va ma'naviy yetukligining bevosita ifodasidir. Maktab ta'limi jarayonida shakllangan bilim va ko'nikmalar asosida shaxs butun hayoti davomida ona tili bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Til madaniyatini chuqur o'zlashtirish esa, nafaqat, individual muvaffaqiyatga, balki jamiyat va oilaviy hayotda yuqori natijalarga erishishga ham xizmat qiladi.

Inson nutq madaniyati statik hodisa bo'lib qolmay, til singari dinamik jarayondir va ijtimoiy hamda shaxsiy o'zgarishlar ta'sirida rivojlanib boradi. U inson hayotining ilk bosqichlaridanoq – bolaning dastlabki so'zlaridan shakllana boshlaydi. Keyinchalik, nutq madaniyati bola bilan birga rivojlanib, maktabgacha yoshdagi bolaning nutqiy kompetensiyasiga, undan so'ng maktab o'quvchisi, talaba hamda yetuk inson nutq madaniyatiga aylanadi. Yosh o'tishi bilan insonning og'zaki va yozma nutqi, o'qish hamda tinglash qobiliyatlari ham yuksalib boradi.

Tadqiqotning uchinchi bobining keyingi fasli **“Sport nutqining xususiyatlari va sportchi nutqining lingvomadaniy asoslari”** deb nomlanadi. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi oliy ta'limning asosiy maqsadi bo'lajak sport mutaxassislarini kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash bilan birga, har tomonlama rivojlangan, aql-idrok, axloq va jismoniy faollikni uyg'unlashtirgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Jamiyat va inson umummadaniy rivojlanishining integral ko'rsatkichi sifatida nutq madaniyatining ahamiyati ortib bormoqda. Yangi texnologiyalar va kompyuterlashtirish jarayonlari sharoitida insonning o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashi, yangi bilimlarni egallashi va ta'sirchan muloqot olib borishi uchun tilni mukammal bilishi zarur.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy faoliyati “nutq mas'uliyatini oshirish” (lingvo-intensiv) kasblari doirasiga tegishli bo'lib, bu yerda nutq asosiy kasbiy vosita hisoblanadi hamda uning samarali qo'llanilishi faoliyat muvaffaqiyatini belgilaydi. Kasbiy funksiyalarni samarali bajarish mutaxassisdan

yuqori darajadagi nutq madaniyatini talab qiladi, bu esa sohaga oid vakillarning muhim kasbiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Kasbiy nutq madaniyatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar qatorida V.A.Artemova, A.N.Ksenofontova, T.A.Ladyzhenskaya, V.V.Sokolova, A.P.Xramchenko, V.P.Chixacheva va boshqalarning ishlari alohida o'rin tutadi. Shuningdek, E.B.Zorina, N.M.Kostixina, L.P.Luneva, G.I.Xozyainova, A.I.Chuchalina va boshqalarning tadqiqotlari oliy kasbiy ta'lim tizimida kasbiy nutq madaniyatini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan.

Umumiy nazariy xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport sohasida bo'lajak mutaxassislarning nutq madaniyatini shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati universitetdagi o'quv va tarbiya ishlarining samarali tashkil etilishiga bog'liq. Universitetgacha bo'lgan tayyorgarlik bosqichida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor berilishi zarur. Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari uchun nutq faqat pedagogik vosita bo'libgina qolmay, balki talabalarga adabiy nutq namunasini taqdim etishning muhim vositasi ham hisoblanadi. Shu sababli, universitet darajasida nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha chuqur va puxta pedagogik dasturlar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Bobning keyingi fasli **“Sportchining nutqiy etiketini shakllantiruvchi va unga putur yetkazuvchi omillar”** deb nomlanadi. Insoniyat ongli mavjudot sifatida boshqa jonzotlardan o'zining nutq qobiliyati va axloqiy me'yorlarga rioya qila olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Inson o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etishi bilan birga, nutqiy jarayonda so'zlarning ma'no jihatidan mos kelishini ham hisobga olishi lozim.

Nutq madaniyatining muhim jihatlaridan biri uning sof bo'lishidir. Sof nutq tushunchasi adabiy til me'yorlariga mos, aniqligi va grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan ifodalarni o'z ichiga oladi. Ammo ba'zan turli sabablarga ko'ra, til normalariga zid unsurlar uchrab turadi, bu esa nutq sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday hodisalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

### **1. So'z va grammatik shakllarning noto'g'ri qo'llanilishi.**

“Bo'lib o'tmish davralardan gapirdi. Qanday qilib samovar olganlaridan gapirdi. – O'ynab borib, ukkag'arning polvonini mana bunday ushladim... – dedi. – Qarang-qarang, qo'linga e'tibor bering, qo'linga!..

– Bizdada olishib edik... – dedi mehmon. Bo'ri polvon gapni ilib ketdi.

– Samovarda olganmisiz? – dedi. – Ha-da!.. ” (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

### **2. Shevaga oid so'z, ibora va frazeologik birliklarning adabiy nutqda ishlatilishi.**

“Qizlar Bo'rini kunilab-kunilab ketdi.

– Xasis, Bo'ri xasis! – dedi. – Egachim elakli bo'ldi, elagi tilakli bo'ldi! – dedi. – Bo'ridan it ham baraka topmaydi! – dedi.” (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

### **3. Varvarizmlar – asossiz va o'rinsiz ravishda chet tillardan olingan so'z va birikmalarni qo'llash.**

“Bo'ri polvon ovozi ko'tarib aytdi:

– Ay, poshikastalar, devordan ko‘p bo‘ylay berma, polvonlarning xayolini bo‘lasan! Bor, o‘smangni qo‘y! ” (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

#### **4. Jargon so‘zlar – muayyan ijtimoiy guruhlariga xos bo‘lgan norasmiy leksik birliklar.**

“Bo‘ri polvon Ermatningda qo‘lidan ushladi.

– Ermat polvon, – dedi, – siz manovi Shukuy... e, astag‘firullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O‘zi, yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bo‘pti-da! Qani, yuringlar. Rais bova, manavi polvonlarga duo bering. Do‘rjiroq zot qo‘ying, kelbatidan ikkoviyam katta polvonga o‘xshayapti! (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

#### **5. Vulgarizmlar – qo‘pol va odob meyorlariga zid bo‘lgan so‘zlar.**

“Bakovul oqsoqollar beliga bittadan to‘nlik beqasam boyladi. – Bali, kuchlaringiz barobar ekan! – dedi. Oqsoqollar bo‘sh kelmadi.

– Eb-ey, nimalar deyapsiz, rais bova? – dedi Hotam polvon. – O‘ngimga kelib edi-yu, tag‘in, Bo‘ri polvonning biron yeri lat yemasin dedim-da!

– Nima-nima? – dedi Bo‘ri polvon. – Ukkag‘ar Hotam polvon-e! Sizga o‘xshaganlarni manavi chinachog‘im bilan yiqitaman, ha! (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

#### **6. Parazit so‘zlar – nutqda ortiqcha takrorlanadigan, ma‘no yuklamasiga ega bo‘lmagan unsurlar.**

“Maksim polvon yengsiz, yoqasiz jelak kiyib chiqdi. Bo‘ri polvon barmoqlari uchi bilan jelagidan ushladi.

– Eb-ey, eb-ey, Maksim inim, bu qanday libos? Mabodo maykamasmi? – dedi. (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

#### **7. Kanselyarizmlar – quruq rasmiyatchilikni ifodalovchi ortiqcha byurokratik iboralar.**

“Biror odam haqida gap bo‘lsa, Bo‘ri polvon: – Polvonmi-yo‘qmi? –deya so‘radi. Yo‘q, javobini eshitsa, qo‘l siltadi.

– Erkakning sultoni olishadi, ha! – dedi. – Ana, Xidir polvon, kezi kelganda davrani gursillatib olishib keta beradi. Men raisman, deb o‘tirmaydi. Bo‘lmasa kimsan – Botirov-a! Arbob, ha, arbob! Ana uni chin erkak desa bo‘ladi! Chunki ota-bovasining hunarini yerda qoldirmayapti! ” (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

## **XULOSA**

Dissertatsiya yuzasidan quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Matn ilmiy nuqtayi nazardan yaxlitlik, mazmuniy bog‘liqlik, tuzilish jihatdan butunlik va pragmatik maqsadga yo‘naltirilganligi kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Matn turli xil shakllarda uchraydi, jumladan ilmiy, badiiy, rasmiy va ommabop matn turlari mavjud. Matn tahlilida so‘z tanlovi, dizayn elementlari, joylashuvi va maqsadli auditoriya kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. U mustaqil gaplardan yoki murakkab sintaktik butunliklardan tashkil topadi va leksik-grammatik aloqalar orqali bog‘lanadi.

2. Matn tarkibidagi unsurlar uning semantik xususiyatlarini belgilaydi. Mikro va makromatnlar tushunchasi mavjud bo‘lib, kichik hajmdagi matnlar (maqollar,

she'rlar, hikoyalar parchalari) mikro, katta hajmdagi matnlar esa makromatn hisoblanadi. So'z yoki so'z birikmalarining matnga tenglashtirilishi nisbiy bo'lib, ular kommunikativ muloqotda qanday ishlatilishiga bog'liq.

3. Matnning tahlili miqdoriy va sifat jihatdan olib boriladi. Miqdoriy tahlil mikroelementlarni statistik jihatdan o'rganishni nazarda tutsa, sifatli tahlil esa matnning umumiy mazmuni va kommunikativ ahamiyatini o'rganishga qaratiladi. Ushbu tahlillar matn tuzilishini chuqurroq anglashga yordam beradi. Matnni grammatika qoidalariga asoslangan holda tizimlashtirish va model yaratish jarayonida hali ham aniq ilmiy yondashuv yo'qligi ta'kidlangan. Matnni tarkibiy qismlarga ajratish va uning lingvistik tahlili muayyan murakkabliklarga ega.

4. Matnning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, informativlik, integratsiya, retrospeksiya kabi elementlar tadqiq etilgan. Har qanday matnda axborot yoyiq va yig'iq shakllarda ifodalangan bo'ladi. Matn tuzilishining umumiy qonuniyatlari aniqlanib, nutqiy-ijodiy jarayon natijasida shakllanuvchi xususiyatlar o'rganilgan.

5. O'zbek tilshunosligida yashirin mazmun to'g'risida chuqur tadqiqotlar olib borilmagan. Biroq, klassik adabiyot namunalari bu yo'nalishga oid boy materiallarga ega bo'lib, "yoyiq" va "yig'iq" mazmun shakllari "botiniy" va "zohiriy" deb ham atalgan.

6. Har bir millatga xos bo'lgan ayrim so'zlar va iboralar boshqa tillarga to'liq tarjima qilinmaydi. Bular qatoriga realiyalar, atoqli otlar va tasodifiy lakunalar kiradi. Frazologizmlar esa xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar va tarixiy jarayonlarini aks ettirib, madaniy xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Turli madaniyatlardagi nutqiy etiket farqlari xalqaro muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Nutqiy etiketni lingvistika, sotsiolingvistika va pragmatika kabi fanlar o'rganadi. Nutqiy etiket jamiyat tomonidan qabul qilingan muloqot meyorlarini ifodalovchi tizim bo'lib, suhbatdoshlar o'rtasidagi aloqani tartibga soladi. Nutq madaniyati esa fikrlarni aniq, ravon va ta'sirchan yetkazish mahoratini o'z ichiga oladi.

8. Bugungi kunda muloqot faqat bevosita (yuzma-yuz) shaklda emas, balki bilvosita, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham amalga oshadi. Turli xalqlarda nutqiy etiket o'ziga xos bo'lib, salomlashish va muloqot qilish shakllari farqlanadi. Bu esa lingvopragmatik tadqiqotlarning madaniyatlararo muloqot uchun dolzarbligini ko'rsatadi.

9. Hozirgi zamon lingvistikasi og'zaki va yozma matnlarni bir butun tizim sifatida o'rganishga e'tibor qaratmoqda. Nutqiy jarayonlarning chuqur tadqiq etilishi tilshunoslik fani rivojiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

10. Ona tilining chuqur o'zlashtirilishi barcha fanlarni o'rganishda muhim omil bo'lib, shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Nutq madaniyatining asosiy talabi adabiy til meyorlariga rioya qilish, mazmunan aniq va mantiqan izchil fikr bildirish qobiliyatidir.

11. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari uchun nutq madaniyati muhim kasbiy vosita hisoblanadi. U pedagogik faoliyat samaradorligini oshirib, ta'lim jarayonida bilimlarni aniq va tushunarli yetkazishga yordam beradi, jismoniy

tarbiya va sport sohasida kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar vazifasini o'taydi va mutaxassislarning o'z faoliyatida samarali olib borishiga ko'maklashadi.

12. Nutqning aniqligi va sof bo'lishi uchun adabiy til meyorlariga rioya qilish lozim. Sheva so'zlari, varvarizmlar, jargonlar, vulgarizmlar va parazit so'zlarning ortiqcha ishlatilishi nutq sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday unsurlarning oldini olish uchun til imkoniyatlaridan to'g'ri va samarali foydalanish zarur.

13. Nutqni rivojlantirish uchun adabiy asarlarni muntazam mutolaa qilish, adabiy til meyorlariga rioya qilish va ortiqcha unsurlardan qochish muhimdir. Bu nafaqat muloqot samaradorligini oshiradi, balki insonning intellektual salohiyatini ham oshirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ  
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**СУЛТАНОВА ЗАРИФА УКТАМОВНА**

**РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТ В УЗБЕКСКИХ МАКРОТЕКСТАХ И ЕГО  
ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ  
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

**Андижан – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № В2023.1.PhD/Fil3063.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Андижанского государственного университета ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Гаффоров Подир Насриевич  
доктор филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Шахабитдинова Шохида Хошимовна  
доктор филологических наук, профессор  
Зарипов Ботир Пулатович  
доктор филологических наук, доцент


**Ведущая организация:** Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «5» августа 2025 г. в 9:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 при Андижанском государственном университете (Адрес: 170100, Республика Узбекистан, город Андижан, улица Университетская, дом 129. Телефон/факс: 0 (374) 223 88 30, e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирована за 142). (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом 129. Тел.: 0 (374) 223 88 14).

Автореферат диссертации разослан «24» июня 2025 года  
(Протокол реестра рассылки за № 09/Б от «24» июня 2025 года)



  
А.Ш.Собиров  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.н., профессор

  
Ф.Ф.Усманов  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.н., доцент

  
Д.А.Нурманова  
Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.ф.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии(PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике смена научных парадигм исследования языка представляет важное значение при более глубоком раскрытии сути языковых явлений. Зарождение коммуникативной лингвистики, исследующей функциональность языка в связке с процессом общения, также является следствием смены системно-структурной парадигмы, являвшейся ведущей в лингвистике XX века, на антропоцентрическую парадигму. Изучение языковых явлений в соотносительности “язык и его носитель” послужило причиной развития лингвистики речи, выпавшей из поля зрения лингвистов, наряду с этим, причиной усиления внимания к происходящим в речи прагматическим, культурологическим, психологическим и социальным аспектам лингвистического знака.

В мировой лингвистике в результате направления внимания на прагматические свойства языковых единиц, приоритетными вопросами повестки дня стали такие вопросы, как речевые акты и возникающий на их основе дискурс, вопрос речевых жанров, связанных с интенциональными свойствами речевых актов. Теория речевых жанров – это становящееся все более популярным особое научное направление, центральный вопрос этой теории состоит из определения жанровых особенностей речевых актов и исследования лингвистических и прагматических аспектов речевых жанров, что считается объектом исследования многих лингвистических центров мира, в частности, школ речевых жанров России, Австралийской школы системно-функциональной лингвистики, направления прикладной лингвистики, английского языка для специальных целей Великобритании, Центра исследования риторических жанров и корпусной лингвистики США.

В узбекской лингвистике также укрепился взгляд на язык, как на антропоцентрическое явление и основное внимание было направлено на анализ в различных аспектах явлений, служащих формированию языковой компетенции носителей языка, в том числе их компетенции общения. Необходимость повышения эффективности проводимых в нашей стране реформ в духовной сфере, ставит требование по переходу работ в этом направлении на качественно новый уровень. Поскольку, в сегодняшний век глобализации естественно каждый народ, каждое независимое государство обеспечивает свои национальные интересы, в этой связи, прежде всего, приоритетное значение придается вопросу сохранения и развития своей культуры, исконных ценностей, родного языка”.

Данная диссертации в определенной степени служит реализации задач, обозначенных Указами Президента Республики Узбекистан №УП-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года, №УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» от 16 февраля 2017 года, №УП-5850 “О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка” от 21 октября 2019 года; Постановлением

Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан №304 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы послевузовского образования» от 22 мая 2017 года и другими нормативно-правовыми документами данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Исследование диссертации выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации при социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства». Речевые жанры, являющиеся неотъемлемой органической частью общения, в частности, жанр клятвы, являются важным информационным источником, свидетельствующим о социальных, национально-культурных, когнитивно-прагматических и ментальных свойствах носителей языка. Несмотря на это, до сегодняшнего дня речевой этикет в макротекстах и его прагматическое исследование не становились объектами монографического анализа в узбекской лингвистике. Это определяет актуальность данной исследовательской работы.

**Степень изученности проблемы.** В лингвистике речевой этикет, в основном, изучен с религиозного, исторического, лингвокультурного, функционально-прагматического аспектов. Однако, национально-ментальные, когнитивно-прагматические свойства речевого этикета в отраслевых, религиозных, народных текстах не становились объектом исследования в разрезе национальных языков.

В мировой лингвистике, в частности, Т. Эдвард Халл, Г. Эрвинг по проблемам межкультурной коммуникации языка<sup>1</sup>, Г. П. Грайс, П. Браун, С. Левинсон, Дж. Дж. Гумперц, С. К. Левинсон, У. Лабов, П. Экман, У. В. Фризен по прагматическим и социальным аспектам речевого этикета<sup>2</sup>, Тейн А. Ван Дейк, Н. Фрай, Б. Джонстон, Г. Х. Мид, Дж. Р. Сурриал провели обширные научные и монографические исследования семантических, синтаксических и прагматических свойств текста<sup>3</sup>.

Русскими лингвистами достигнут ряд существенных результатов в изучении речевого этикета и его прагматических аспектов в макротекстах. В частности, в результате анализа речевого этикета в русском языке:

---

<sup>1</sup> Hall Edward T. The Silent Language. Doubleday, 1959; Goffman, Erving. The Presentation of Self in Everyday Life. Garden City, N.Y.: Doubleday, 1959.

<sup>2</sup> Grice H.P. "Logic and Conversation. 1975; Brown, P., & Levinson, S.C. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press. 1987; John J. Gumperz & Stephen C. Levinson (eds.), Rethinking Linguistic Relativity. Cambridge University Press. pp. 17-374 (1996); Labov, W. The social stratification of (r) in New York City Department Stores. In N. Coupland & A. Jaworski (Eds.), Sociolinguistics. Palgrave Macmillan. 1997; Paul Grice H. "Logic and Conversation". 1975; Ekman, P., & Friesen, W.V. Facial Action Coding System (FACS). 1978.

